



## **O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HID SIFATLARINING QO'LLANILISHI**

***Burxanova Mashxuraxon Muhammadovna***

*FarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

***Toyirjonova Zarnigorbonu Baxodirjon qizi***

*chet tillari fakulteti 1-kurs talabasi*

Inson uchun ko'rish, his qilish va eshitish qanchalik zarur bo'lsa, hid bilish ham shunchalik ahamiyatga egadir. Kundalik hayotimizdan tortib badiiy adabiyotlar-u tibbiyot sohasida ham hidlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tibbiyotda hidlar kasallikni taxmin qilish va xususiyatlarini tavsif etishga, sog'liq uchun xavfli bo'lgan kasalliklarni oldindan aniqlab, bartaraf etishga yordam beradi. Adabiyotlarda, badiiy asarlarda ishlatiladigan hid sifatleri esa voqeani jonli va rangli bo'yoqlarda tasavvur etishimizga yordam beradigan asosiy ko'makchilardan biridir. Masalan, Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasidan olingan quyidagi parchaga diqqat qiling: "kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag'rida o'g'lini ko'rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uyni hidi kelardi. Ushbu parchani o'qigan o'zbek kitobxoniga gap nima haqida ketayotganligini milliy-madaniy kodlar orqali darrov anglashi mumkin. Ma'lumki, islom dinida aroq harom hisoblanadi. Sham yoqilgan uyni hidi birikmasi orqali yozuvchi asar qahramonining xristian diniga o'tganligiga ishora etmoqda. O'zbek millatida ham mana shunday dindan chiqish qattiq qoralanadi. Yozuvchi birgina aroqning va sham yoqilgan uyni hidi orqali kitobxoniga o'zi ilgari surgan ma'nolarni yetkaza olgan. Agar mana shunday hid sifatleri bo'lmaganda edi, hikoyani to'laqonli obrazli va rangli holda tasavvur eta olmagan bo'lardik. Ko'rinib turganidek, sifatlar tilda ekspressiv-bo'yoqdorlikni oshirishga katta yordam beradi. Hid sifatlarining har qanday tilda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatish maqsadida taniqli olmon yozuvchisi hisoblangan Patrik Zyuskindning "Ifor" romanidan olingan parchalardan foydalanishga qaror qildik: "In the period of which we speak, there reigned in the cities a stench barely conceivable to us modern men and women. The streets stank of manure, the courtyards of urine, the stairwells stank of moldering wood and rat droppings, the kitchens of spoiled cabbage and mutton fat; the unaired parlors stank of stale dust, the bedrooms of greasy sheets, damp featherbeds, and the pungently sweet aroma of chamber pots. The stench of sulfur rose from the chimneys, the stench of caustic lyes

from the tanneries, and from the slaughterhouses came the stench of congealed blood.

Yuqoridagi parchada hidning baʼzi turlari koʻrsatib oʻtilgan. Masalan, stench soʻzi qoʻllansa, sassiq hid kabi salbiy maʼnoda qoʻllansa, stank soʻzi esa daraja jihatiga koʻra stenchdan yoqimsizroq, kuchli jirkanish tuygʻusini ifodalaydigan hid sifati hisoblanadi. Parchada hidga nisbatan moulder, yaʼni chirigan yoki chiriyotgan hid birikmasi ham qoʻllanilgan. Koʻpincha ushbu sifat eski kitoblar, oziq-ovqatlar yoki oʻsimliklarning chirish jarayonidagi hidni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ushbu sifatlarning barchasi yoqimsiz islarni ifodalash uchun qoʻllaniladi va matn kontekstiga qarab, turli xil darajalarda foydalanish mumkin. Lekin daraja jihatdan eng kuchlisi sifatida **stank**ni ayta olamiz. Chunki ushbu soʻz, asosan, chidash juda qiyin boʻlgan, oʻtkir badboʻy hidni ifodalash uchun qoʻllaniladi. Endi aynan shu parchaning Gulbahor Saidgʻaniyeva tomonidan tarjima qilingan oʻzbekcha variantini keltirib oʻtamiz:

oʻsha davrda shaharda, biz hozirgi odamlar uchun tasavvur qilib boʻlmas darajada qoʻllansa boʻy bor edi. Koʻchalardan goʻng hidi kelardi, zinalardan chirigan yogʻoch va kalamush isi, oshxonalardan esa behuzur qiluvchi koʻmir va qoʻy yogʻi isi burqsib yotardi; havo kirmagan mehmonxonalardan oʻrnab ketgan mogʻorlar, yotoqxonalardan kir choyshablar, nam partoʻshaklar va tungi tuvaklardan koʻtarilgan oʻtkir hidlar anqirdi. Moʻrilardan oltingugurt hidi, teri oshlanadigan joylardan oʻtkir ishqor, qushxonalardan qon isi kelardi.

Ushbu parcha orqali ham oʻzbek tilining qanchalar boy til ekanligining guvohi boʻlishimiz mumkin. Bir xatboshining oʻzida hid, boʻy, is kabi sinonimik qatorning boʻlishi fikrimizning yorqin isbotidir. Eʼtibor qiladigan boʻlsak, inglizcha variantida hid soʻzining **stank** deb atalishi takror va takror qoʻllangan. Hid sifatlariga toʻxtaladigan boʻlsak, ot soʻz turkumidagi soʻzlar orqali hid munosabati amalga oshirilgan, jumladan, kalamush isi, koʻmir va qoʻy yogʻi isi kabi. Aynan hid sifatleri bilan qoʻllanilgan feʼllarga nazar tashlaydigan boʻlsak, hid kelmoq qoʻshma soʻzining salbiy boʻyoqdorligi boʻlgan burqsimoq va anqimoq kabi turlarini koʻramiz. Ingliz tilida ham, oʻzbek tilida ham shunday maʼno boʻyoqdorligi mavjud soʻzlar boʻlmaganida, asardagi voqelik, yozuvchi tasvirlagan holat manzarasi toʻlaqonli oʻz aksini topmagan boʻlard. Har qanday til tarkibiy qismini tashkil etadigan bunday sifatlar bizga samarali muloqot qilish, turli hidlarni badiiy adabiyotda samarali tasvirlash imkoniyatini beradi. Bu esa oʻz navbatida kitobxon ongida hislarni uygʻotishga, asarni aniqroq tarzda jonlashtirishga hissa qoʻshadi. Quyidagi parchalarda esa hidning ijobiy maʼnolarini ifodalagan sifatlarga duch kelamiz:

□ The top logs gave off a sweet burnt smell, and up from the depths of the cord came a mossy aroma; and in the warm sun, bits of resin odor crumbled from the pinewood planking of the shed □ □

□ Her sweat smelled as fresh as the sea breeze, the tallow of her hair as sweet as nut oil, her genitals were as fragrant as the bouquet of water lilies, her skin as apricot blossoms □ and the harmony of all these components yielded a perfume so rich, so balanced, so magical □ □

□ The smell of a sweating horse meant just as much to him as the tender green bouquet of a bursting rosebud, the acrid stench of a bug was no less worthy than the aroma rising from a larded veal roast in an aristocrat's kitchen. He devoured everything, everything, sucking it up into him. But there were no aesthetic principles governing the olfactory kitchen of his imagination, where he was forever synthesizing and concocting new aromatic combinations □.

Agar ingliz tilining izohli lug'atiga qarasak, ushbu parchalarda qatnashgan hid sifatlarining ma'no uyg'unligidan hayratga tushamiz. O'zbek tilida ko'pincha yoqimli isga nisbatan shirin, xushbo'y yoki muattar kabi sifatlar qo'llanadi. Ingliz tilida ham shunday rang-baranglik mavjuddir. Masalan, hidga nisbatan qo'llangan sweet so'zi yoqimli degan ma'noni bersa, aroma so'zi tezda ilg'ab olinadigan, juda yoqimli isga nisbatan qo'llaniladi. Fragnant atamasi esa asosan, sweet va odorga nisbatan kuchliroq ma'noda bo'lib, xush keladigan, o'ta yoqimli hid ma'nosida qo'llaniladi. Fe'l shakllarida kelgan hid taratmoq, hid chiqarmoq ma'nolarini yuzaga keltirgan, smell so'zi bilan birgalikda qo'llangan give off va come fe'llari; badbo'y ma'nolarida kelgan stink, stench va moulder kabi so'zlarning mavjudligi ingliz tilining haminqadar boy til ekanligini isbotlaydi. Yuqorida □Ifor□ romanidan ulashilgan ingliz tilidagi parchalarni o'zbek tilida tahlil qilamiz:

□ Yuza qismidan issiq va shirin hid, taxlam orasidan mog'orning yengil hidi, bostirmaning qarag'ay devoridan qatron bug'lanishining iliq oqimi kelardi □ □

□ Qizning teri xuddi salqin dengiz shabadasi kabi xushbo'y edi, sochlari yong'oq yog'i kabi, sonlari □ suv nilufarlari guldastasiday, terisi □ o'rik rangiday □ va ushbu barcha tarkiblar qo'shilmasi shunday hashamatli, shunday muattar, shunday sehrli □ □

□ Uning uchun endigina ochilayotgan g'unchaning nozik hidi qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, terlagan ot hidi ham shu qadar edi, taxta bitining o'tkir hidi xo'jayinlar oshxonasidan taralayotgan buzoq go'shtining qaynoq bug'idan kam emasdi. U hamma narsani o'zida jamlar, yutardi. Lekin u doimo yangi hidlar

tarkibini tuzadigan tasavvurining uygunlashtiruvchi oshxonasida hali hech qanday estetik tamoyil yetakchilik qilmasdi.

Shirin, issiq, yengil kabi xususiyat sifatleri matn tarkibida qoʻllanilib, hid sifatleri vazifasini bajarmoqda. Xushboʻy va muattar sifatleri esa bir-biriga sinonim tarzda qoʻllanib, matnning jonli boʻlishiga va oʻquvchi ongida ushbu vaziyatni tiklashga xizmat qilmoqda. Bir soʻzni tinmay qaytarish natijasida yuzaga keladigan uslubiy xatoliklarni, mazmuniy noaniqlik va soʻflikning buzilishi kabi xatoliklarga yoʻl qoʻymasligimizda soʻzlarning sinonimik qatori yordamga keladi. Ular ifodalagan maʼno nozikliklari tilning boyishiga bevosita oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Oʻzbek va ingliz tilida mavjud boʻlgan maʼno rang-barangligini birgina hid sifatleri misolida koʻrib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ashurov, S., Yomghirov, O., & Karimova, N. (2023). CALCULATION OF THE ABSORBED DOSE IN PHANTOMS USING THE DOSXYZNRC SOFTWARE PACKAGE. *Science and innovation*, 2(A1), 113-116  
2. Muyassar M., Karimova N. THEORETICAL ASPECT OF DEVELOPMENT

OF CULTURE OF INTERETHNIC COMMUNICATION AMONG STUDENTS //UNIVERSAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 89-94

3. Хидиров, X. H. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. *Молодой ученый*, (15), 322-324.

4. Хидиров, X. H. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. *Молодой учёный*, 30, 95.

5. Хидиров, X. H. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. *Молодой ученый*, (14), 262-263.

6. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2314-2320.

7. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Nauka i obrazovanie segodnya*, (4 (63)), 82-83

8. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1777-1784

9. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Наука и образование сегодня*, (4 (63)), 82-83

10. ST Xasanova, DN qizi Qayumova, BS Ramozonova. (2023). TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G‘URURNI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYASI. *GOLDEN BRAIN* 1 (31), 101-107

11. Xusanova Ma’rifat Axmadjonovna., Asomiddinova Gulruh Alijonovna. TIL ESTETIKASIGA DOIR. *Analytical Journal of Education and Development* Volume: 03 Issue: 03 | Mar-2023 ISSN: 2181-2624 [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz) 262-265.

12. Khusanova Marifat Ahmadjonovna USE OF PHRASEOLOGISMS IN POEMS *Science and innovation*. Volume 2 Issue 6. 07.06. 2023. 23-25 DOI:<https://doi.org/10.5281/zenodo.8014949>